2025-YIL 23-24-OKTYABR – IV XALQARO FORUM

Chiqindilarni boshqarish to‘g‘risidagi yangi qonun tahriri “yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida ekologik toza texnologiyalarni keng tatbiq etishga yo‘naltirilgan.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekistonda energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda asosiy o‘rinni egallaydi. Kelajakda tegishli qonunchilikni mustahkamlash, moliyaviy va texnologik resurslarni jalb qilish, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratish ushbu strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mamlakatda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishda muhim huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur talablar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 2030-yilga qadar 25–30 foizga oshirishni ko‘zda tutuvchi strategik reja ishlab chiqdi.

Quyoshdan keladigan radiatsiyaning sayyoramizga tushadigan energiyasi o‘rtacha 1,3–1,4 kVt/m²ni tashkil etadi. Atmosfera orqali kosmosga qaytib ketadigan radiatsiya miqdorini inobatga olmaganda, yer yuzasiga o‘rtacha 1 kVt/m² energiya to‘g‘ri keladi. Ushbu energiya hajmi jahonning hozirgi umumiy energiya ehtiyojidan qariyb 9000 marotaba ko‘p ekani aniqlangan. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkichlar iqtisodiy taraqqiyot va aholining farovonligi barqarorligi elektr energiyasi ta’minoti, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishga bevosita bog‘liq ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Ushbu jarayonlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyot prognozlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va kelgusida energetika xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan strategik reja qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy energetika tizimidagi ulushini 2030-yilga qadar 25–30 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu rejani amalga oshirish nafaqat iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi, balki mamlakatning energiyaga bo‘lgan ehtiyojini ekologik toza va samarali manbalardan qondirishga ham yo‘naltirilgan.

Prognozlarga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritilayotgan investitsiyalar va texnologik innovatsiyalar natijasida iqtisodiy o‘sish tezlashadi, atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sir esa kamayadi. Bu jarayonda quyosh, shamol va boshqa qayta tiklanuvchi manbalarning samaradorligini oshirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur reja asosida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish nafaqat milliy energetika xavfsizligini mustahkamlaydi, balki xalqaro miqyosda ham barqaror energetika sektorida raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Iqtisodchilar va energetika mutaxassislarining prognozlariga ko‘ra, quyosh energiyasidan samarali foydalanish nafaqat energiya ta’minoti muammosini hal etadi, balki mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishiga ham katta hissa qo‘shadi. Quyosh energiyasidan keng foydalanish ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya resurslari xarajatlarini qisqartirish va tabiatni asrashga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining turmush darajasining yaxshilanishi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Shu sababli, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, ayniqsa quyosh energiyasidan foydalanish kelajakda nafaqat energiya ta’minotini, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi shundaki, bu iqtisodiy model jahon bo‘ylab ekologiya va iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Resurslar cheklangan va ularning noto‘g‘ri foydalanilishi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday sharoitda yashil iqtisodiyot nafaqat tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlaydi, balki atrof-muhitni himoya qilish, iqlim o‘zgarishini oldini olish va aholi salomatligini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Dolzarblikning yana bir sababi shundaki, jahon iqtisodiyoti tobora ekologik talablarni qondiradigan texnologiyalar va innovativ yechimlar tomon yuzlanmoqda. Bu jarayonda O‘zbekiston ham raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirishi lozim. Investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi zamonaviy iqtisodiyotning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishga oid tadqiqotlar va nazariyalar keng ko‘lamda ilmiy muhokama hamda amaliy izlanishlar asosida shakllangan. Adabiyotlarda bu mavzuni yoritishda bir necha muhim qarashlar va tadqiqotlar mavjud.

Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishi global miqyosdagi ekologik muammolar va tabiiy resurslarni samarali boshqarish zarurati bilan bogʻliq. A. Mahmudov oʻz asarida yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini tahlil qilib, uning amaliy yoʻnalishlarini koʻrsatadi. Uning fikricha, yashil iqtisodiyotga oʻtish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham taʼminlaydi.

R. Sultanov "Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi" mavzusidagi tadqiqotida yashil texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga eʼtibor qaratadi. Uning izlanishlari Oʻzbekistondagi iqtisodiy rivojlanish uchun yashil texnologiyalarning ahamiyatini yoritib beradi.

T. M. Kozhevnikova va S. G. Ter-akopovlar "Yashil iqtisodiyot — barqaror rivojlanishning yoʻnalishlaridan biri" nomli asarida iqtisodiyotda xoʻjalik faoliyatini ekologiyaga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishga oʻtish zarurati mavjudligini asoslaydi. Ularning fikricha, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish, kambagʻallikni qisqartirish va ijtimoiy adolatning muhim hamda zamonaviy asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Yu. Shodimetov va D. Ayrapetovlar "Yashil iqtisodiyot — barqaror rivojlanishga yoʻl" nomli maqolasida zamonaviy jamiyatlarda yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishni taʼminlashdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarini tadqiq qilgan. Ular rivojlangan davlatlar va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari tajribasini oʻrgangan hamda uning Oʻzbekiston uchun foydali tomonlarini koʻrsatib oʻtgan.

V. Vichikning "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" asarida soʻnggi 30 yil davomida jahon amaliyotida barqaror rivojlanish borasida sezilarli natijalar qoʻlga kiritilgani qayd etiladi. Asarda barqaror rivojlanishda asosan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga urgʻu berilayotgani taʼkidlangan. Bunda yashil iqtisodiyot soʻnggi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida resurs tejovchi va atrof-muhitga kam salbiy taʼsir koʻrsatadigan yoʻnalish sifatida tadqiq qilingan.

Dmitriy Verxoturovning tadqiqotlaridan maʼlum boʻlishicha, Oʻzbekiston uglevodorod energiya manbalari — neft, gaz va koʻmirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida 4,5 foizini yoʻqotmoqda. Qolaversa, mamlakatdagi energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarning qariyb yarmi eskirgan. Ularni tiklash yoki modernizatsiya qilish katta mablagʻ talab qiladi. Buning oʻrniga iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali hisoblangan "yashil energetika"ga oʻtish ming chandon afzal hisoblanadi. Axir, butun dunyo shu yoʻlni tanlamoqda. Eʼtiborlisi, Oʻzbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi boʻlib mazkur harakatga qoʻshildi. Mohiyatan, bundan toʻrt yil avval qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi" mamlakatimizning "yashil taraqqiyot" sari yuz tutganini anglatadi.

Ushbu adabiyotlar Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishi boʻyicha ijobiy tajribalar va potensial muammolarni chuqur tushunishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini barqarorlashtirishda muhim qadamlarni aniqlash imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qoʻllaniladigan usullardan foydalanildi. Oʻzbekistonning yashil iqtisodiyotga oʻtishining zarurligi, maqsadi va ayrim muammolarini oʻrganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduktiv yoki induktiv usullardan foydalanish samarali boʻlsa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli jarayonni tizimli tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tahlil jarayonida aynan shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilish jarayonlarida esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasining 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga oʻtish va "yashil" oʻsishni taʼminlash dasturi juda muhim va strategik hujjat boʻlib, uning asosiy maqsadi mamlakatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini barqaror yoʻlga qoʻyishdir. Ushbu dastur jahondagi iqlim oʻzgarishlari, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va energiya manbalarining diversifikatsiyasi masalalarini hal qilishga qaratilgan. Xususan, mamlakat oldiga qoʻyilgan vazifalardan biri issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yilga nisbatan 35 foizga kamaytirishdir. Bu koʻrsatkich, albatta, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va ekologik vaziyatni yaxshilash yoʻlidagi katta yutuq boʻlishi mumkin.

Dasturda, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini elektr energiyasi ishlab chiqarishda 30 foizga yetkazish va QTE quvvatini 15 GBтga oshirish belgilangan. Bu nafaqat elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki global iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda ham muhim qadam hisoblanadi. Oʻzbekistonning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish boʻyicha belgilangan maqsadlarni amalga oshirishi mamlakatning barqaror rivojlanishini taʼminlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dasturda yana bir muhim yoʻnalish — bu tabiiy resurslardan, ayniqsa suvdan samarali foydalanishni taʼminlashga qaratilgan choralardir. Qishloq xoʻjaligi sohasida suv tejovchi sugʻorish texnologiyalarini joriy etish

va 1 million gektar maydonda ushbu texnologiyalarni tatbiq etish oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. Bu, shubhasiz, aholining turmush sifatini oshirishga, oziq-ovqat mahsulotlarini samarali ishlab chiqarishga yordam beradi.

Shahar infratuzilmasi bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Har yili 200 million daraxt ekish va shaharlar hududida yashil maydonlarning ulushini 30 foizga yetkazish mamlakat ekologiyasiga katta hissa qo'shadi. Bu nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilaydi, balki aholining salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga yetkazish orqali atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash va resurslardan qayta foydalanish samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Yana bir muhim omil sanoat sohasida energiya samaradorligini 20 foizga oshirishdir. Bu ko'rsatkich sanoat korxonalarida modernizatsiya va texnologik qayta qurishlar o'tkazish, yangi energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Shu jarayonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish darajasini oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinib turibdiki, ushbu dasturdagi har bir yo'nalish mamlakatning barqaror rivojlanishiga va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga qaratilgan. Foizlar va miqdoriy ko'rsatkichlar bilan belgilangan ushbu maqsadlar o'z vaqtida amalga oshirilsa, O'zbekiston nafaqat ekologik jihatdan barqaror davlatga aylanadi, balki iqtisodiyotini ham zamonaviy va energiya samaradorligi asosida qayta qurish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga qo'shilgan. Har ikkala hujjat milliy hukumatlar zimmasiga "yashil taraqqiyot" talablarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Demak, ertami-kechmi "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimiz va shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashimiz, natijada iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishishimiz zarur.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonida O'zbekiston bir qator muammo va to'siqlarga duch kelishi mumkin. Iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish jarayonida ichki va tashqi muammolar yuzaga kelishi muqarrar. Bu muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish yo'llari davlat tomonidan qabul qilingan strategiyada belgilangan.

Birinchi navbatda, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning huquqiy asoslarini, ya'ni milliy qonunchilikni jahon talablariga moslashtirish va yagona tizimga keltirish zarur. Ba'zi davlatlar bu ishni amaliyotdan boshlab, keyin qonunchilik bazasiga e'tibor berganlari sababli qo'shimcha muammolarga duch kelgan. Bunday xatolar o'tish jarayonini sekinlashtiradi. Hozirgi vaziyatda "yashil taraqqiyot"ning asosiy drayverlari bo'lishi mumkin bo'lgan energetika, ilm-fan va innovatsiyalar, turizm kabi sohalarga oid qonunlarda nomuvofiqliklar mavjud. Me'yoriy hujjatlarning o'zi ham haddan ziyod ko'p. Masalan, elektr energiyasini iste'molchiga yetkazib berish, narx-navoni belgilash va to'lovni amalga oshirish mexanizmlari an'anaviy tizim asosida yaratilgan. Muqobil energiya manbalari bilan ishlash uchun huquqiy me'yoriy aktlar mavjud emas. Masalan, quyosh yoki boshqa turdagi qayta tiklanuvchi energiyani kim va qancha miqdorda ishlab chiqaradi, u aholiga qanday tartibda va qaysi tarif bo'yicha yetkazib beriladi? Bu kabi savollarga aniqlik kiritib, qonun hujjatlarida mustahkamlash va shu orqali yangi bozor subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirib borish zarur.

Ikkinchi muhim masala — "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda davlatning qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanishini belgilab olishdir. Chunki dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga katta miqdorda investitsiya kiritishga to'g'ri keladi. Davlat budjeti bu yukni ko'tarolmaydi, shu sababli hukumat ehtimol xalqaro donor tashkilotlar va xususiy investorlarga murojaat qilishi mumkin. Bunday vaziyatda tashqi yordam yoki investitsiyalar qanday shartlarda taqdim etiladi? Bu yordam va investitsiyalarni davlat, mahalliy aholi, tadbirkorlik va xo'jalik subyektlari qay tarzda olishlari mumkin? Agar ushbu masalalarda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida ishlash uchun kuchli rag'bat va motivatsiya ta'minlanmasa, davlatning barcha sa'y-harakatlari zoye ketadi.

"Yashil iqtisodiyot"ga tezroq va nisbatan og'riqsiz o'tish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni jadal rivojlantirish zarur. Chunki bu turdagi iqtisodiyot, avvalo, ilmiy yutuqlar va samarali innovatsion yechimlarga tayanadi. Masalan, so'nggi o'n yil ichida dunyo miqyosida quyosh energiyasidan foydalanish xarajatlari 80 foizga qisqardi. Ushbu tendensiya hanuz davom etmoqda. Nega? Chunki olimlar, muhandis va texnologlar mavjud uskunalarni takomillashtirish, yangilarini yaratish va tannarxni pasaytirish bo'yicha uzluksiz izlanmoqda. Shunday tadqiqotlarni O'zbekiston ham olib borishi zarur. Aks holda, innovatsion mahsulotlarni doimo xorijdan import qilishga to'g'ri keladi. Shu sababli, ularni o'zimizda ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarbdir.

Mamlakatimizda "yashil taraqqiyot"ga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham nihoyatda muhimdir. Bu borada mintaqaviy birdamlikka erishish zarur. Ana shunda jarayon samarali va tez sur'atlarda amalga oshadi. Ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarbdir. Tabiatda siyosiy chegaralar mavjud emas. Masalan, "yashil energetika" tizimi yoki atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdan nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni davlatlar ham foyda ko'radi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy manfaatli strategik rejalar asosida hamkorlikda harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston o'z qarorini allaqachon qabul qildi. Endi esa soha rivoji uchun huquqiy hamda institutsional poydevor yaratib, mahalliy loyihalarni amalga oshirishga kirishish lozim. Buning uchun o'n, balki yigirma–o'ttiz yil talab qilinishi mumkin.

**O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya resurslari**

O'zbekistonda quyosh energiyasining umumiy salohiyati 51 milliard t.n.e. (tonna neft ekvivalenti) bo'lib, texnik salohiyati 177 million t.n.e.ni tashkil etadi. Bu raqamlar mamlakatning quyosh energiyasidan sanoat darajasida foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi. Quyosh energiyasining texnik salohiyati mamlakatdagi birlamchi energiya iste'molidan to'rt baravar yuqori. Quyosh energiyasidan samarali foydalanish hozirgi vaqtda O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda quyosh panellari va quyosh suv isitish uskunalari joriy etilmoqda.

Shamol energiyasiga keladigan bo'lsak, uning umumiy salohiyati 2,2 million t.n.e.ni tashkil etadi va uning 19 foizini texnik jihatdan o'zlashtirish mumkin. Shamol energiyasidan samarali foydalanish uchun shamol tezligining yuqori bo'lishi zarur. O'zbekistonning ayrim hududlarida bu ko'rsatkich yetarli bo'lib, yiliga o'rtacha 3200–4300 soat shamol energiyasidan foydalanish mumkin.

**O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar**

Jahonning nufuzli kompaniyalari, jumladan "ACWA Power", "Masdar" va "Total Eren" O'zbekistonda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etmoqda. Ushbu loyihalar orqali 2023-yilning o'zida 2 ming megavatt quvvatga ega stansiyalar foydalanishga topshirildi, kelgusi yillarda esa 8 ming megavattgacha quvvatlarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Bu loyihalar O'zbekistonning yoqilg'i-energetika kompleksini barqaror rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Quyosh panellari, shamol turbinlari, invertorlar va boshqa elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar mamlakatimizda barpo etilmoqda. Bu esa 8 milliard dollarlik yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu sanoat tarmoqlarini rivojlantirish O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

Yuqorida qayd etilgan moliyaviy ko'mak instrumentlari, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlariga tatbiq etilsa maqsadga muvofiqdir. Sababi, ular bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga nihoyatda sezgir bo'lib, yangi raqobat muhitiga moslasha olmasligi mumkin. Yirik korxonalarda esa "himoya yostiqchasi" mavjud. Shu bois, ayrim kompaniyalar "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda qiyinchilikka duch kelmaydi. Juda bo'lmasa, mahsulot yoki xizmat turlarini diversifikatsiyalash orqali ehtimoliy risklarni minimallashtirishi mumkin.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda asosiy rol o'ynaydigan iqtisodiyot tarmoqlarini belgilab olish ham juda dolzarbdir. Fikrimizcha, dastlabki bosqichda turizm va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiya kiritish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoatidan ham katta samaradorlik kutiladi. Bir so'z bilan aytganda, davlat qaysi sohani, qachon va qanday qilib "yashil iqtisodiyot"ga o'tkazishni hozirdanoq belgilab olishi zarur.

Yaqin istiqbolda "yashil taraqqiyot"ning intellektual kuchi hisoblangan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammosiga duch kelishimiz mumkin. O'zbekiston oldida shunday mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Bu ishga hozirdan kirishilmasa, kelgusida xorijiy davlatlarga qaram bo'lib, yana katta xarajatlarga duch kelish ehtimoli mavjud.

"Yashil iqtisodiyot"ga tezroq va nisbatan og'riqsiz o'tish uchun ilm-fan va innovatsiyalarni jadal rivojlantirish zarur. Chunki bu turdagi iqtisodiyot, avvalo, ilm-fan yutuqlari hamda samarali innovatsion yechimlarga asoslanadi. Masalan, so'nggi o'n yil ichida dunyo miqyosida quyosh energiyasidan foydalanish xarajatlari 80 foizga qisqardi. Ushbu tendensiya hozir ham davom etmoqda. Nega? Chunki olimlar, muhandis va texnologlar mavjud uskunalarni takomillashtirish, yangilarini yaratish va tannarxni pasaytirish ustida tinimsiz izlanmoqda. Shunday tadqiqotlarni O'zbekiston ham olib borishi zarur. Shundagina innovatsion mahsulotlarni xorijdan import qilish o'rniga, o'zimizda ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Mamlakatimizda "yashil taraqqiyot"ga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham nihoyatda muhimdir. Bu borada mintaqaviy birdamlikka erishish zarur. Shunda jarayon samarali va tez sur'atlarda amalga oshadi. Ekologik muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi masalalar Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasi uchun dolzarbdir. Tabiatda siyosiy chegaralar mavjud emas. Masalan, "yashil energetika" tizimi yoki atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishdan nafaqat O'zbekiston, balki qo'shni davlatlar ham manfaatdor bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy manfaatli strategik rejalar asosida birgalikda harakat qilish eng to'g'ri yo'ldir.

Biroq "yashil iqtisodiyot"ga o'tish yoki o'tmaslik har bir respublikaning mustaqil qaroridir. O'zbekiston o'z tanlovini qildi. Endi esa soha rivoji uchun huquqiy hamda institutsional poydevor yaratib, lokal loyihalarni amalga oshirishga kirishish lozim. Bunga o'n, balki yigirma–o'ttiz yil talab qilinishi mumkin. "Yashil iqtisodiyot"ni muvaffaqiyatli joriy eta olgan Skandinaviya mamlakatlari tajribasini o'rganish ham foydadan xoli emas.

Masalan, "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik" (P4G) so'nggi yillarda ilgari surilgan yirik xalqaro tashabbus hisoblanadi. Uni "yashil rivojlanish" yo'lini tanlagan mamlakat va shaharlarning o'ziga xos klubi, deb atash mumkin. Hozirda ushbu loyihaning o'ndan ortiq a'zosi mavjud. Mazkur platforma doirasida ishtirokchilar "yashil iqtisodiyot"ga o'tishga yordam beradigan innovatsion yechimlar yaratish bo'yicha hamkorlik qilmoqda.

“P4G” institutsional tuzilma bo‘lib, bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Uning ko‘magida O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot strategiyasi”ni amalga oshirish uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, “yashil iqtisodiyot” avvalo oddiy xalqning manfaatlari va istiqboliga xizmat qiladi. “P4G” yo‘nalishidagi sheriklikka qo‘shilishimiz pirovardida o‘zbekistonliklar turmush tarzining yaxshilanishi, hayot sifatining ortishi, shaharlarning yashash uchun qulaylashuvi, mintaqamizda ekologik muvozanatning tiklanishi va boshqa ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

“Yashil rivojlanish”ga o‘tish O‘zbekistonning investitsion jozibadorligini ham oshiradi. Hozirgi vaqtda bu harakat butun dunyoda trendga aylangan. Yirik kompaniyalar, transmilliy korporatsiyalar o‘z faoliyatida “yashil rivojlanish” tamoyillarini qo‘llamoqda. Ular korporativ imijni saqlab qolish uchun Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini namoyon etmoqda. O‘z navbatida, “yashil o‘sish” yo‘lini tanlagan mamlakatlar ham xalqaro tashkilotlar va biznes doiralarining e’tiborini tortmoqda. Tashqi kreditor va investorlar bunday davlatlarga sarmoya kiritishni ma’qul ko‘rmoqda. O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tayotgani dunyo hamjamiyati uchun muhim signal hisoblanadi. “Yashil taraqqiyot”ga oid maqsadlarimizni amalga oshirishga qaratilgan yirik sarmoyaviy loyihalarni xalqaro donor tashkilotlar, xususan, G‘arb kompaniyalari moliyalashtirish istagini bildirishlari muqarrar, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda tabiatni asrab-avaylash, ekologik holatni yaxshilash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masala Markaziy Osiyo davlatlari uchun ayniqsa dolzarbdir. Mintaqa xalqlari azaldan qon-qardosh bo‘lib, bir-biri bilan bahamjihat turmush kechirib kelmoqda. Tarixi, madaniyati, savdo-sotig‘i va tabiati o‘xshash bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi.

Jahon banki tahliliga ko‘ra, Markaziy Osiyo mintaqasida demografik o‘sish tufayli 2050-yilda 90 million nafargacha odam (qarib 30 foiz aholi) suv tanqisligiga duch kelishi, sug‘orishga sarflanadigan suvga bo‘lgan talab esa 30 foizga oshishi kutilmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning katta qismi sug‘oriladigan bo‘lgani sababli, bu tarmoqda band bo‘lgan 55 milliondan ortiq kishining turmush darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri suv ta’minoti darajasiga bog‘liq. Ushbu ne’matdan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy foyda mintaqa YAIMining 5 foizini yoki 20 milliard dollarni tashkil qilishi mumkin.

Shu o‘rinda, mintaqaning eng og‘riqli muammolaridan biri — Orol fojiasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish birgalikdagi amaliy sa’y-harakatlarni talab qilishini alohida ta’kidlash lozim. Chunki ekologik muammolar hech qachon faqat bir xalq yoki bitta davlatga xos bo‘lmaydi. Qayerdadir yuzaga kelgan ekologik vaziyat atrofdagi mamlakatlar aholisi hayotiga ham bevosita ta’sir qiladi. Iqlim o‘zgarishi, sahrolanish jarayoni va bir vaqtlar butun mintaqa tabiatining muvozanatini ta’minlagan Orol dengizining inqirozi bunga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari, bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan yana biri — atrof-muhitning chiqindilar bilan tobora ortib borayotgan darajada ifloslanishidir. Shu sababli O‘zbekistonda chiqindilar masalasida ichki siyosat tubdan qayta ko‘rib chiqilib, ularning hosil bo‘lishidan tortib utilizatsiyasi va qayta ishlanishigacha integratsiyalashgan yondashuvlar qo‘llanmoqda. Respublikada maishiy chiqindilarni kompleks boshqarishga oid zamonaviy klasterlar shakllantirilmoqda.

Mamlakatimizda “Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari. Atrof-muhit muhofazasi, energiya tejash va energiya samaradorlik — Green Ecology Technologies Central Asia — GETCA — 2018” xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazilgandan so‘ng ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ilg‘or tashkilotlar bilan tajriba almashish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yildi. Unda Germaniya, Shveysariya, Chexiya, Fransiya, Vengriya, Daniya, Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy hamda 40 ga yaqin mahalliy korxonalar ishtirok etdi. Ular tomonidan taklif qilinayotgan mahsulot va xizmatlar tobora rang-barang bo‘lib bormoqda.

Iqtisodiy faoliyatda tejash samaradorligi jadal taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Shu bois, respublikamizda so‘nggi yillarda chiqindilardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu boradagi ishlar yildan-yilga jadallashmoqda. Hozirgi vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Buxoro, Xorazm, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida bunday kichik korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur korxonalarda qog‘oz chiqindilaridan tuxum va poliz mahsulotlari uchun qutilar, ishlatilgan shinalar hamda plastmassalardan turli zarur mahsulotlar tayyorlanmoqda.

So‘nggi yillarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida bugungi kunning dolzarb ekologik muammolarini muhokama qilish va ularning amaliy yechimi bo‘yicha investitsiyaviy hamkorlik rivojlantirilmoqda. Xususan, Orolbo‘yi mintaqasida aholi turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha maxsus jamg‘arma tashkil etildi hamda Shveysariya bilan hamkorlikda yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, chiqindilarni kompleks boshqarish, energetika va bioxilma-xillik sohalarida hamkorlikda amalga oshiriladigan qo‘shma tadbirlarni ishlab chiqish, sohaga oid investitsion loyihalarni amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan birgalikda loyihalarni tatbiq etish bo‘yicha muhim kelishuvlarga erishilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi nafaqat milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki global ekologik muammolarni hal qilishda ham muhim qadamlardan biridir. Jahondagi eng so'nggi yondashuvlardan biri — "Karbon neytrallikka erishish" yoki "Nol karbon izi" konsepsiyasi bo'lib, u iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. 2050-yilgacha ko'plab davlatlar va yirik kompaniyalar karbon neytrallikka erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymoqda. O'zbekiston ham ushbu jarayonga qo'shilib, karbon izini kamaytirishga yo'naltirilgan milliy dasturlarni ishlab chiqishi lozim. Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalardan keng foydalanish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "tsirkulyar iqtisodiyot" jahon miqyosida dolzarb model sifatida e'tirof etilmoqda. Unda resurslarni qayta ishlash, chiqindilarni minimal darajaga tushirish va ularni ishlab chiqarish jarayoniga qayta yo'naltirish kabi maqsadlar qo'yiladi. Ushbu model atrof-muhitga zararlarni kamaytirish bilan birga, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, jumladan, kichik va o'rta biznes uchun innovatsion yo'nalishlarda rivojlanish imkoniyatini oshiradi.

O'zbekiston uchun global "yashil moliya" mexanizmlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki "yashil obligatsiyalar" va "yashil kreditlar" orqali qayta tiklanadigan energiya va karbon chiqindilarini kamaytiruvchi texnologiyalarni moliyalashtirish dasturlarini qo'llab-quvvatlamoqda. O'zbekiston ushbu moliyaviy manbalardan foydalanib, o'z iqtisodiyotini ekologik jihatdan barqaror qilish yo'lida tezroq va samaraliroq harakat qilishi mumkin.

Integratsiya va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish masalasi ham muhimdir. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirishi, shuningdek, mintaqaviy energiya bozorlariga qo'shilib, qayta tiklanadigan energiyaning eksport salohiyatini oshirishi lozim. Bu nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi, balki mintaqaviy ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirokchi sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish bo'yicha kompensatsiya mexanizmlarini joriy qilish va energiya samaradorligiga qo'yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqish orqali O'zbekistonning global ekologik muammolarga munosib javobi kuchayadi. Xalqaro standartlarga mos qonunchilikni shakllantirish nafaqat milliy ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki mamlakatning xalqaro obro'sini ham mustahkamlaydi.

Shuningdek, energiya samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish tizimlarini yaratish katta ahamiyatga ega. Energiya tejash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash, ularning bajarilishini muntazam monitoring qilish va energiya sarfi yuqori bo'lgan korxonalarda energomenedjment tizimini kuchaytirish resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Elektr energiyasi iste'molini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali hisobga olish jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda ta'lim va fanni integratsiya qilish ham muhim omil hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot asoslarini oliy va o'rta maxsus ta'lim dasturlariga, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim dasturlariga kiritish, o'quv adabiyotlarini qayta nashr etish va pedagoglar hamda ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Bu esa kelajak avlodning ekologik ongli va bilimli bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, milliy va xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish "yashil texnologiyalar"ni ilgari surishda alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston ushbu tadqiqotlarni rag'batlantirish orqali o'zining ilmiy salohiyatini oshirishi va innovatsion rivojlanishda yetakchilikka intilishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi jarayonida jahonning eng ilg'or yondashuvlarini milliy dasturlarga integratsiya qilish va ularni samarali joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Karbon neytrallik va tsirkulyar iqtisodiyot modellari, xalqaro moliyaviy mexanizmlar va mintaqaviy integratsiya jarayonlari O'zbekistonning ekologik barqarorligiga, shuningdek, global ekologik muammolarni bartaraf etishda yetakchi davlat sifatidagi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Mahmudov A. "Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari". *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*, 2020.
2. Sultonov R. "Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi". Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Верхотуров Д. «Узбекистан и переход на зеленую энергетику: вызовы и перспективы». Москва: Научные исследования, 2019.
4. Рисёва, О., Худайбердиев, А. «Қайта тикланувчи энергия ва ялпи ички маҳсулот ўртасидаги ўзаро боғлиқлик». Тошкент: Тошкент давлат иқтисодиёт университети нашри, 2022, 45-58 бетлар.
5. Олимжонов, Р. «Ўзбекистонда яшил иқтисодиёт: стратегия ва истиқболлар». *Экономика журнали*, №4, 2021, 12-25 бетлар.
6. Бекулова С.Р. «Возобновляемые источники энергии в условиях новой промышленной революции: мировой и отечественный опыт». *Мир новой экономики*, №4, 2019.

7. Вахабов А.В. «Яшил иқтисодиёт концепциясини амалга оширишнинг хориж тажрибаси ва ундан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш имкониятлари». Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами, Тошкент: «Universitet», 2019, 4-13 бетлар.
8. Вахабов А.В. «Миллий иқтисодиётда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва таркибий ўзгаришларни амалга ошириш муаммолари». *Эконмика и туризм: международная и natsional'ная практика*, Тошкент, 2020, 2-11 бетлар.
9. Вахабов А.В., Файзуллаев Ж.Н. «Яшил иқтисодиётга ўтиш бўйича халқаро ва миллий дастурлар». *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, 2019, № 3, 39-50 бетлар.
10. United Nations. *Paris Agreement on Climate Change*. 2015.
11. World Bank. *Green Economy and Sustainable Development*. World Bank Publications, 2019.
12. Qodirov B. "Ekologik muammolar va iqtisodiy barqarorlik". *O'zbekiston ilmiy jurnali*, 2022.
13. OECD. *The Role of Innovation in Green Growth*. OECD Publishing, 2019.
14. GEF (Global Environment Facility). *Investing in Renewable Energy for a Sustainable Future*. 2020.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-436-сонли қарори «2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг "яшил" иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида».
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори «Иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳанинг энергия самарадорлигини ошириш, энергия тежовчи технологияларни жорий этиш ва қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришнинг тезкор чора-тадбирлари тўғрисида». Тошкент, 2019.
17. Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги. «Қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантириш стратегияси 2030 йилгача». Тошкент: Энергетика вазирлиги нашри, 2020.
18. DFID ва IEA. *Яшил иқтисодиёт ва қайта тикланувчи энергия манбаларининг ривожланиши*. Лондон: DFID ва IEA нашри, 2021.
19. UNDP. *Яшил иқтисодиётга ўтиш: Ўзбекистон учун янги имкониятлар*. Нью-Йорк: UNDP нашри, 2019.
20. Жаҳон Банки. *Экологик тоза технологиялар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири*. Вашингтон: Жаҳон Банки нашри, 2020.

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

## YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

### Ilmiy elektron jurnal

### (MAXSUS SON)

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030

23-24 OCTOBER 2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND FINANCIAL SYSTEM AND DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025 OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН –2030»

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

UZBEKISTAN STRATEGY 23-24 OCTOBER

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI

2030

https://strategy2025.tsue.uz/

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ФОРУМ

UZBEKISTAN STRATEGY

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com
Telefon: +998 93 124 57 11
Sayt: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISSN: 2992-8982
ISBN 978-9910-8110-8-1
9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030

UZBEKISTAN STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI